

DIAREYAGA QARSHI DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI

Maxammatov A.U.
Masharipova R.R.

Toshknet Farmatsevtika institute, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: 777m.azim@gmail.com, tel +998 99 472 62 52
<https://doi.org/10.5281/zenodo.12543041>

Dolzarbligi: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bergan ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda diareya bolalar o'limining uchinchi sababi ekanligini takidlagan. Yillik hisoda diareyadan bolalar o'limi 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida 443832 nafarni va 5 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida 50851 nafarni tashkil etadi. Xavfsiz ichimlik suvi va yaxshi sanitariya va gigiena qoidalarini ta'minlash orqali diareya holatlarining katta qismini oldini olish mumkin. Har yili dunyo bo'ylab bolalar o'rtasida 1,7 milliardga yaqin diareya holatlari ro'y beradi.

Tadqiqotning maqsadi: Diareyaga qarshi dori vositalarining assortiment tahlili o'tkazish va ehtiyojni aniqlash.

Usul va uslublar: O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrda ro'yxatga olingan diareyaga qarshi dori vositalarining kontent tahlili, guruhlash, assortiment kengligidan foydalanildi.

Natijalar: 2023 yil № 27 O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrda ro'yxatga olingan dori vositalari xorijiy davlatlardan 5515 ta savdo nomida, MDH mamlakatlari 1619ta savdo nomida, mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 3268 ta savdo nomida ro'yxatdan o'tgan. Diareyaga qarshi dori vositalari xorijiy davlatlardan Hindiston, Germaniya ishlab chiqaruvchilari tomonidan 3ta (37.5%) xalqaro patentlanmagan nomda, Mustaqil Davlatlar Hamdostligi davlatlaridan Belarusiya, Ukraina ishlab chiqaruvchilari tomonidan 2ta (25%) xalqaro patentlanmagan nomda ro'yxatdan o'tgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 3 ta (37,5%) xalqaro patentlanmagan nomda 000 Navbahor Sanoat, 000 ATM Pharm, 000 LAXISAM Pharmaceuticals, 000 Sharq Darmon, 000 Zomin Pharm, 000 Merrymed Farm, 000 Radiks, 000 Radiks, 000 Lafz, 000 Novo Farm Komplekt, 000 ZUNNUR SERVIS FARM, 000 Grace pharma, 000 O'zkimyofarm, AO C.K. Исламбеков, QK Remedy Uzbeko-Britanskoe, 000 Nika Pharm, 000 Samo tomonidan ro'yxatdan o'tgan.

Davlatro'yxatidan o'tkazilgan diareyaga qarshi dori vositalariningdori shakllari bo'yicha tahlili

Dori shakli	2023 yil		
	Xorijiy	MDH	Mahalliy
Tabletka	2	3	14
Kapsula		1	7
Tomchi	1		
Kukun		1	2

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra xorijiy davlatlardan tabletka va tomchi dori shakli, MDH va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan esa tabletka, kapsula va kukun dori shakillari ro'yxatdan o'tgan.

Xulosalar: Tahlil natijasiga ko'ra mamlakatimiz bozorida 8 ta xalqaro patentlanmagan nom bilan dori vositalar ro'yxatdan o'tgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar dori shakillari bo'yicha assortimenti kengligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri /2023 -27.
2. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/diarrhoeal-disease>